


Volume II | Issue 3 | March-April | 2024

Journal of
RESEARCH
and **INNOVATIONS**

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ



ISSN: 2181-4058

Available online at www.imfaktor.com

 **IMFAKTOR**
Science driven pages

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-4 СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-II, НОМЕР-3-4

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-II, ISSUE-3-4

ТОШКЕНТ - 2024

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 3-4 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2024-3-4>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

1. Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
2. Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
3. Якубжон Хатамович Юлдашов – қишлоқ хўжалик фанлари номзоди, профессор,
4. Камалова Дильфуза Энуаровна – филология ф.б.ф.д (PhD)
5. Раззақов Шухрат Турсунович – техника фанлари номзоди, доцент
6. Чоршанбиев Шухрат Махматмуродович – техника ф.б.ф.д. (PhD), доцент
7. Нематов Эркинжон Ҳамроевич – техника ф.б.ф.д (PhD), доцент
8. Бобокалонов Одилшоҳ Остонович – филология ф.б.ф.д (PhD)
9. Абдуллаева Садокат Шоназаровна – техника ф.б.ф.д (PhD)
10. Шарипов Козимжон Комилжонович – техника ф.б.ф.д (PhD)
11. Норматов Ғайрат Алижанович – техника ф.б.ф.д (PhD)
12. Бозорова Гульмира Зайниддиновна – филология ф.б.ф.д (PhD)
13. Убайдуллаев Фарход Бахтияруллаевич – қишлоқ хўжалиги ф.б.ф.д (PhD)
14. Каримова Дилафрўз Ҳалимовна Филология – филология ф.б.ф.д (PhD)
15. Маҳмудова Муаттар Мақсатуллаевна – филология ф.б.ф.д (PhD)
16. Юлдашева Дилафруз Махамадалиевна – филология фанлари доктори

“Тадқиқот ва инновациялар” журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 7.1 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

МАНМАТҚУЛОВ Ilhom Turdimurodovich
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
arxitektura fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dotsent

ESHMURODOV Odil Eshmurod O'g'li
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
“Madaniy meros obyektlarini saqlash va foydalanish” mutaxassisligi
II-bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10935646>

О'РТА ОСИYO ME'MORCHILIGIDA ALOHIDA BINO TARZIDA SHAKLLANGAN XONAQOHLAR ARXITEKTURASI REJAVIY ECHIMLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekiston arxitekturashunoslik fanida xonaqoh binolari eng kam o'rganilganligi, ayniqsa, ularning arxitekturasi, xonaqoh binolarining shakllanish ildizlari va evolyusiyasi alohida ilmiy tadqiq ostiga olinmaganligi hamda O'zbekistonning mustaqillik yillarida shakllangan milliy g'oyasi, xalqimizning islomiy iymon va e'tiqodi, tasavvuf ta'limoti asosida shakllanayotgan yangi axloqiy qadriyatlarimiz sufizmning o'tmishdagi muassasalari – xonaqohlar tarixi va arxitekturasi o'rganishga qaratilgan. Shuningdek, O'rta Osiyo me'morchiligida alohida bino tarzida shakllangan xonaqohlarni qurilgan joyi va boshqa imoratlariga munosabatiga qarab guruhlariga bo'lishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo me'morchiligi, xonaqoh binolari, alohida bino tarzida qurilgan xonaqohlar, xonaqohlarga xos me'moriy xususiyatlar, xonaqohlarning shakllanish evolyusiyasi, Me'moriy ansambllar, hovlilari kompozitsiya, jamoatxona, ziyoratgoh, tasavvuf ta'limoti, me'moriy majmualar, ravoqli – gumbazli hajmiy tuzulish.

АРХИТЕКТУРНО-ПЛАНИРОВОЧНЫЕ РЕШЕНИЯ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ СТИЛЕ СТРОИТЕЛЬСТВА ХАНАКА В СРЕДНЕАЗИАТСКОЙ АРХИТЕКТУРЕ

АННОТАЦИЯ

В статье архитектурной наукой Узбекистана наименее изучены отечественные постройки, особенности их архитектуры, корни формирования и эволюции отечественных построек, а также сформированная в годы независимости национальная идея Узбекистана, исламская вера. и веры нашего народа. Наши новые моральные ценности, формирующиеся на основе учения суфизма, направлены на изучение истории и архитектуры прошлых учреждений суфизма – домов. Также имеются сведения о разделении помещений, сформированных в стиле отдельного здания в архитектуре Средней Азии, на группы в зависимости от места постройки и их отношения к другим постройкам.

Ключевые слова: Среднеазиатская архитектура, дворцовые постройки, дворцы, построенные в стиле отдельного здания, архитектурные особенности, характерные для дворцов, эволюция формирования дворцов, архитектурные ансамбли, дворовая композиция, общественный зал, святилище, суфизм, архитектурные комплексы, сводчато-купольный объем состав.

ARCHITECTURE PLANNING SOLUTIONS OF INDIVIDUAL BUILDING-STYLE KHANAKA IN CENTRAL ASIAN ARCHITECTURE

ANNOTATION

In the article, the architectural science of Uzbekistan is the least studied of domestic buildings, especially their architecture, the roots of the formation and evolution of domestic buildings, and the national idea of Uzbekistan formed in the years of independence, the Islamic faith and belief of our people, Our new moral values, which are being formed on the basis of the doctrine of Sufism, are aimed at studying the history and architecture of the past institutions of Sufism - houses. Also, there is information about the division of rooms formed in the style of a separate building in the architecture of Central Asia into groups depending on the place of construction and their relation to other buildings.

Key words: Central Asian architecture, palace buildings, palaces built in the style of a separate building, architectural features typical of palaces, evolution of the formation of palaces, architectural ensembles, courtyard composition, public hall, shrine, Sufism, architectural complexes, Vaulted - dome volume structure.

O‘zbekiston arxitekturashunoslik fanida xonaqoh binolari eng kam o‘rganilgan sohalardan biridir. Ayniqsa, ularning arxitekturasi, xonaqoh binolarining shakllanish ildizlari va evolyusiyasi alohida ilmiy tadqiq ostiga olinmagan. O‘zbekistonning mustaqillik yillarida shakllangan milliy g‘oyasi, xalqimizning islomiy imon va e‘tiqodi, tasavvuf ta‘limoti asosida shakllanayotgan yangi axloqiy qadriyatlarimiz sufizmning o‘tmishdagi muassasalari – xonaqohlar tarixi va arxitekturasi o‘rganishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan biz mazkur maqolaga qo‘l urdik. O‘rta Osiyo me‘morchiligida alohida bino tarzida shakllangan xonaqohlarni qurilgan joyi va boshqa imoratlarga munosabatiga qarab uch guruhga bo‘lish mumkin:

- Mozorlar, mozaratlar va memorial – ziyoratgoh komplekslar qoshida qurilgan xonaqohlar;
- Me‘moriy ansambllar yoki ijtimoiy maqsadlarga mo‘ljallangan me‘moriy majmualar yonida qurilgan xonaqohlar;
- Alohida shakllangan, ya‘ni boshqa binolarga bog‘liq bo‘lmagan holda alohida qurilgan xonaqohlar.

Har uchchala guruhdagi xonaqohlar arxitekturasi ham aksariyat hollarda, ko‘p xonali ravoqli – gumbazli hajmiy tuzulishda, tarhiy echimiga ko‘ra esa mujassamlashgan, bo‘ylama o‘qli, simmetrik frontal tarzda va hovlili rejaviy kompozitsiyalarda shakllangan. Hovlili kompozitsiyaviy echimdagi xonaqohlarda darveshlar va so‘fiylarning hujralari bosh ibodat zali - jamoatxonadan alohida, hovli atrofida ketma – ket ritm metrik qator shaklida joylashtirilib qurilgan. Ayrim hollarda binoning chuqur ravoqli baland kirish peshtoqi bino tarz qismini deyarli to‘liq egallab olgan va bino tarzi ikki tomondan “guldasta”li minorachalar bilan tugallanib, bino tarzi simmetrik hajmiy – fazoviy kompozitsiyani tashkil qilgan.

Alohida bino tarzida shakllangan xonaqohlar ichida memorial – ziyoratgoh majmualar qoshida qurilgan xonaqohlar guruhi nisbatan kengroq tarqalgan. Bu tushunarli, chunki O‘rta Osiyo xalqlarida “avliyo”larga e‘tiqod va ularni ziyorat qilish urf – odati qadimdan mavjud bo‘lib, bu uzoq – yaqindan kelgan ziyoratchilarning diniy – ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish uchun xonaqohlar qurilishini shakllantirgan.

Shu asosda avliyo Shayxlar mozorlari qoshida alohida bino tarzida xonaqohlar shakllanib, ular tarkibida xujralar va boshqa yordamchi xonalar hamda markaziy zal qurilib, u ko'pincha masjid va, ayni paytda, darveshlarning jamoa tarzida zikr qilishlari uchun mo'ljallangan. Bunday xonaqohlar simmetrik tarzli simmetrik mujassam yig'noq kompozitsiyada ayrim hollarda ikki qavatli, binoning burchak qismlarida esa ikki qavatli xujralar, tarz qismlarida kompozitsion o'qlar bo'ylab keng ravoqli ayvonlar joylashgan. Ana shunday mujassam me'moriy – rejaviy echim va kompozitsiyada Hirot shahri yaqinida XV asrda qurilgan Shayx Sadridin Armaniy va Mulla Kalon xonaqohlari, Turkmanistonda Mean shahri yaqinida qurilgan Shayx Abu Said xonaqosi shakllangan [1, 2].

XV asrda Hirotning Abdulloh Ansori memorial ansambli tarkibida qurilgan Zarnigarxona xonaqosi ham ko'p xonali tuzilishda, biroq bo'ylama o'qli kompozitsiyada, o'q bo'ylab dastlab kvadrat tarxli daxliz, so'ngra katta zal va boshqa xizmatchi xonalar joylashgan [1].

Bo'ylama o'qli simmetrik kompozitsiya, shuningdek, Navoiy shahri yaqinidagi Dobusiya qal'asida XVI asrda qurilgan Imom Baxri xonaqosi va Buxoroga yaqin joylashgan Chorbakr ziyoratgohidagi xonaqohlarga ham xosdir(1-rasm).



*1-rasm. Samarqand bilan Buxoro shaharlarini o'zaro bog'lab turgan
Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan
Dobusiya qal'asi*

XVI asrga kelib Shayboniylar hukmronligi davrida qurilgan xonaqohlar arxitekturasi yanada salobatli ko'rinishga ega bo'ladi. Bu davr me'morchiligi oldingi davr va eng avvalo Temuriylar davri me'moriy yutuqlari asosida rivojlanib, binolarning, shu jumladan, xonaqohlarning arxitekturaviy obrazlari, konstruksiyalari, naqsh-nigori va rejaviy echimlari takomillashadi. Buxorodagi Baxouddin Naqshband ziyoratgohi tarkibida qurilgan ulug'vor arxitekturaviy echimga ega Baxouddin Naqshband xonaqosi binosi, Karmanadagi Qosim Shayx ziyoratgohida qurilgan Qosim Shayx xonaqosi binosi va Navoiy yaqinidagi Imom Baxri xonaqohlari arxitekturasi fikrimizning isbotidir. Ularning arxitekturaviy echimiga tarhdagi mujassamligi, oddiyligi, bino tarzining aksli simmetriyada qurilganligi, binoning me'moriy yaxlitligi, shakllarining o'zaro mutanosibliigi, tarhi chorsu yoki unga o'xshash shaklga ega bo'lgan markaziy zalning mavjudligi, baland gardish yoki o'zaro kesishuvchi ravoqlar ustiga o'rnatilgan gumbaz shakli xosdir. Buxorodagi Baxouddin Naqshband, Karmanadagi Qosim – Shayx xonaqohlari bunga misoldir (2-rasm).



2-rasm. Karmanadagi “Qosim Shayx” majmuasi ta’irlash jarayonidan lavha

Alohida bino tarzida shakllangan peshtoqli – gumbazli ko‘pxonali xonaqoh binolari, odatda, bitta bosh kirish peshtog‘iga ega, biroq binoning bosh o‘qi yonida ikkita kirish peshtoqi joylashgan turi ham uchraydi. Ular o‘rtasida baland gardish ustiga o‘rnatilgan gumbaz joylashadi. O‘tmishda Navoiy va Ingichka shaharlari orasida joylashgan Dobusiya qal‘asidagi Imom Baxri xonaqosi (XVI a.), Karmanadagi Qosim – Shayx xonaqosi (XV a.) shunday xonaqohlarga misoldir. Qosim – Shayx xonaqosining yon tarzida uchinchi peshtoq ham mavjud bo‘lib, u tashqi ayvon vazifasini bajaradi. Bosh kirish peshtoqi, odatda, boshqa peshtoqlardan baland bo‘lib, uning tugal qismi ochiq ravoqlar qatori bilan bezatilgan. Ta’kidlash zarurki, tarhi mujassam simmetrik tarzli (yig‘noq) kompozitsiyali ko‘pchilik xonaqohlarda markaziy bosh ibodat zalining tarxi krest shakliga yoki unga yaqin bo‘lgan shakllarga ega bo‘lib, tarhi kvadrat shaklli zal ham uchraydi.

Alohida bino tarzida shakllangan mujassam tuzilishli xonaqoh binolarining genetik asosini O‘rta Osiyo va Eronida islomgacha va ilk islom davrida vujudga kelgan mumtoz me‘moriy va konstruktiv – kompozitsiyaviy shakllar – “chortoq” yoki “ko‘shk” tashkil qiladi. Hirot yaqinidagi Sadriddin Armaniy, Hirot Ziyoratgohidagi Mulla Kalon, Buxorodagi Baxouddin Naqshband, Karmanadagi Qosim Shayx va boshqa xonaqohlarning konstruktiv – kompozitsiyaviy shakllari bunga misoldir.

O‘rta Osiyo xonaqohlari orasida tarzi bo‘rttirilgan kompozitsiyaga ega imoratlardan uch turini uchratdik: tarhi mujassamlashgan (Buxoroda Yor-Muhammad Otaliq xonaqosi, tarhi bo‘ylama o‘qli (Buxorodagi Nodir Devonbegi xonaqosi) va hajmli frontal ko‘rinishli xonaqoh (Kitob tumanidagi Xoja Ilmxona xonaqosi). Alohida bino tarzida shakllangan xonaqohlar safida hovlili kompozitsiyalarga ega bo‘lgan imoratlar kam uchraydi (masalan, Buxorodagi Xalifa Xudoydod xonaqosi, shuningdek frontal ko‘rinishli xonaqohlar ham kamdan-kam qurilgan (masalan, Ko‘xna Urgenchdagi Najmiddin Qubro, Termiz yaqinidagi Kokildor xonaqohlari).

Me‘moriy ansambllar yoki ijtimoiy maqsadlarga mo‘ljallangan me‘moriy majmualar tarkibidagi xonaqohlar, odatda, madrasa binolari yonida qurilgan. Ma‘lumki, Samarqandda XIV asr oxirida valiahd Muhammad Sultonga atab qurilgan me‘moriy ansambl kvadrat hovli atrofida alohida shakllantirilgan binolar tarzida valiahdning madrasasi va xonaqosi hamda maqbarasidan tarkib topgan. Ansambldagi xonaqoh binosi madrasa qarshisida bir o‘qda joylashgan bo‘lib, unga ro‘paro tarzda qurilgan. Xonaqoh bu joyga tashrif buyurgan nufuzli mehmonlar, sufiylar, madrasa mudarrisarlari va ziyoratchilar uchun xizmat qilgan [8].

Samarqandning Registon maydonida Ulug‘bek madrasasi ro‘parosida qurilgan xonaqoh binosi ham o‘zining me‘moriy kompozitsiyaviy obrazi va tarziga ko‘ra madrasadan kam bo‘lmagan. U mujassam kompozitsiyali, peshtoqli – gumbazli bino bo‘lib, o‘zining arxitekturasi va baland gumbazi bilan o‘z vaqtida Boburda katta taassurot qoldirgan [3].

Xonaqoh binosining boshqa jamoat binolari bilan me‘moriy ansambl tarzida qurilishiga yana bir ijobiy misol tarzida Hirotda Injil kanali yonida Alisher Navoiy tomonidan qurilgan “Ixlosiya” ansamblini keltirish mumkin. Ushbu ansambl tarkibiga “Ixlosiya” xonaqosi kiritilgan bo‘lib, u o‘z navbatida mazkur shaharda Sulton Xusayn Boyqaro qurdirgan ansambl xonaqosi kabi faoliyat ko‘rsatgan [8].

Alisher Navoiy va Xusayn Boyqaro ansamblaridagi xonaqohlar madrasa binosi bilan bir chiziqda bir-biriga ro‘paro tarzda qurilgan bo‘lib, “qo‘sh” uslubidagi ansamblni tashkil qilgan. Ushbu har ikkala xonaqoh ham boshqa xonaqohlardan o‘zlarining me‘moriy kompozitsion va badiiy echimi hamda faoliyati bilan farq qilgan, chunki ulardan nafaqat sufiylar, balki adabiyot va san‘at ixlosmandlari, madrasa mudarrisilari ham foydalangan [8].

Turkmanistonda Qadimgi Anau shahridagi turkmanlar muhitida e‘tiqod qilinadigan Shayx Jaloliddin Mozori qoshida bunyod etilgan binolar kompleksiga masjid, madrasa va xonaqohlar kirgan [1].

Ushbu binolar ham o‘zlarining me‘moriy obrazi va kompozitsiyaviy echimlari bilan mazkur kompleksni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Biroq, bu kompleks va ansamblar bizgacha etib kelmagan, ulardan faqat harobalar qolgan.

Alohida shakllangan, ya‘ni shaharsozlik nuqtai – nazaridan o‘zga binolarsiz alohida hududda qurilgan xonaqohlarni Buxoro shahri va Buxoro viloyatida hamda Termiz shahrida nisbatan ko‘proq uchratish mumkin. Bularga Buxoro yaqinidagi Fayzobod xonaqosi, Termiz shahriga yaqin joylashgan Kokildor xonaqosi, Buxorodagi Yor Muxammad Otaliq va Mullo – Mir xonaqosi, Buxorodagi Nodir Devonbegi xonaqosi va boshqalarni kiritish mumkin. Agar Fayzobod va Kokildor xonaqohlari o‘zining tarhdagi frontal kompozitsiyasi bilan ajralib tursa, Yor Muxammad Otaliq va Mullo – Mir xonaqohlari mujassam shakllangan simmetrik fasadli kompozitsiyasi bilan o‘zgachadir. Nodir Devonbegi xonaqosi esa tarhda bo‘ylama o‘qli fasadli kompozitsiyaga ega.

Ushbu xonaqohlar ichida Fayzobod xonaqosining me‘moriy echimi ancha tantanavor bo‘lib, tashqi ko‘rinishi va rejaviy echimida barcha tarafdin vizual yaxlitlikka egadir. Binoning yon tarzlari bo‘ylab ishlangan ochiq ravoqlar galereyasi xovli ichidan go‘zal ko‘rinish hosil qilgan. Umuman xonaqoh hovlisi Buxoro iqlimi sharoitida yoqimli mikroiklim yaratish imkonini bergan. Bosh peshtoq va xonaqohning orqadagi zaliga bir qavatli hujralar birikkan. Alohida shakllangan xonaqoh binolari o‘zlarining salobatligi, inter‘er va ekster‘erlarining mahorat bilan ishlanganligi, tashqi ko‘rinishi va simmetrik kompozitsiyali arxitekturaviy obrazi bilan xonaqohlarning boshqa xillaridan alohida ajralib turgan (3-rasm).



3-rasm. Buxorodagi Fayzobod xonaqosining kechki ko‘rinishi

L.Yu.Mankovskaya o‘zining “Tipologicheskie osnovy zodchestvo Sredney Azii” (T., 1980) kitobida xonaqoh binolarining rejaviy echimiga ko‘p hovlili kompozitsiyaning qo‘llanilganini aytib o‘tgan. Biroq, xonaqohlar kurilishi amaliyotidan bunday echimdagi binolarga misol keltira olmagan. XIV asrga oid Buxoro vaqf hujjatlari matnidan foydalanib L.Yu.Mankovskaya ishlagan ta‘mirlash chizmalaridan aynan xonaqoh uchun ko‘p hovlili kompozitsiyaviy echimning qo‘llanilganini tushunish anglash qiyin.

Biz ushbu vaqf hujjatlari [4] bilan yaqindan tanishib shuni angladikki, L.Yu.Mankovskaya aytgan ko‘p hovlili rejaviy echim aynan bu erdagi xonaqoh binosiga emas, balki Buxoroning Fayzobod mavzesida Shayx Sayfiddin Boxarzi maqbarasi qoshida shakllantirilgan va tarkibiga xonaqoh binosi ham kirgan ulkan memorial me‘moriy kompleksiga taalluqli ekan.

Bizni, shuningdek, Buxorodagi Baxouddin Naqshband mozori yonida, bu erda Abdulazizxon tomonidan XVI asrda qurilgan yangi xonaqoh binosiga qadar shakllangan qadimgi memorial majmua tarkibida faoliyat ko‘rsatgan sufiylar xonaqosi ham qiziqardi. Ushbu majmua imoratlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, ular ikki qismga bo‘linganini ko‘rish mumkin. Ulardan birinchisi, ya‘ni eng qadimgisi va eng qadirlisi tashqi muhitdan xolilashtirilgan uzun ayvonlar va devorlar bilan chegaralangan, to‘g‘ri to‘rt burchakli keng ichki hovli bo‘lib, unda Shayx Baxouddinning mozori va uning yonida tarhi kvadrat, atrofi pog‘onasimon zinapoyalar bilan bezatilgan tosh hovuz joylashgan. Ularning yonida esa ilohiy kosa uchun “ko‘shk” o‘rnatilgan. Ushbu joyda ilohiy quduq ham mavjud bo‘lib, shuningdek uncha katta bo‘lmagan masjid va maqbara ham qurilgan. Ta‘kidlash kerakki, mazkur hovli ushbu memorial majmua ziyoratchilari uchun eng e‘tiqodli va ahamiyatli joy hisoblanadi [2].

Hovli devorlari tashqarisida uch tarafda mozorlar mavjud bo‘lib, to‘rtinchi tarafdan mazkur memorial majmuaning ikkinchi tashqi qismi joylashgan. Uning tarkibida har kungi besh vaqt namozi uchun minorali masjid, ziyoratchilar uchun mo‘ljallangan karvonsaroy, ularning orqa qismida ulkan hovuz va ushbu majmuaning eng bosh binosi – XVI asrda Abdulazizxon tomonidan qurilgan Baxouddin Naqshband xonaqosi joylashgan. Ushbu bino qurilganga qadar bu erdagi dastlabki xonaqoh ichki hovlili imorat bo‘lib, uning “zixronasi”, ya‘ni ibodat zali bizgacha saqlangan o‘sha qadimgi hovliga qaragan masjidlarning biri o‘rnida joylashgan bo‘lishi mumkin, chunki ichki hovlida Baxouddin mozori ham joylashgan. Dastlabki xonaqoh hujralari va boshqa xo‘jalik xonalarini ushbu hovli atrofida va uning chetida joylashgan deyishimiz mumkin.

Shunday qilib, XVI asrda, ya‘ni bu erda Buxoro xoni Abdulazizxon tomonidan hozirgi bizgacha saqlangan va mahobatli me‘moriy obrazga ega bo‘lgan xonaqoh binosi qurilganga, hozirda mavjud bo‘lmagan dastlabki xonaqoh Baxouddin mozori qoshida hovlili kompozitsiyada shakllantirilgan bo‘lib, o‘z tarkibiga Shayx Baxouddin mozoridan tashqari yana uchta ilohiy atributni: hovuz, ilohiy kosa va quduqni ham qamrab olgan [5].

Honaqoh binolarining evolyusiyasini o‘rganish bizga O‘rta Osiyo me‘morchiligidagi ayrim yodgorliklarning dastlabki shakllanish tarixini ko‘rib chiqish imkonini ham berdi. Islomiyat olamida sufizm va islomgacha dinlar ta‘sirida amalga kiritilgan, avliyolar mozorini ilohiylashtirish va ularni ziyorat qilish urfi o‘sha mozorlar va maqbaralar qoshida uzoqdan kelgan ziyoratchilar va darveshlar uchun hujralar, ziyoratxonalar va sufiylar uchun alohida zalga ega bo‘lgan honaqohlar qurish ehtiyojini tug‘dirgan.

Sufiylar zali, odatda, o‘sha maqbara yoki ziyoratxona bilan yonma-yon qurilgan. Bunda xonaqoh zali, ayni paytda, masjid va zixrona rolini ham bajargan. Ushbu funksiyalar uchun ayrim hollarda alohida zallar yoki kami bilan ikkita zal qurilgan. Masalan, Xorazmdagi Shayx Muxtor – Vali va Ko‘xna Urgenchdagi Najmiddin Qubro maqbaralari ikki zallik xonaqohlarga ega: ziyoratxona va zixrona. Keyinroq, XX asrga kelib, sufizmning roli susaygach bunday xonaqoh zallari ziyoratxona yoki masjid deb atalib ketgan, tarkibiga xonaqoh kirgan kompleksning nomi esa avvalgiday maqbara nomida qolgan.

Shunday qilib, sufiylar mozori va maqbaralari qoshida qurilgan xonaqohlar XX asrga kelib bizgacha maqbaralar nomida etib kelgan. Masalan, Tojikistonning Penjikent tumani Mozori Sharif qishlogʻidagi Muhammad Bosharo maqbarasi tarkibidagi xonaqoh bizgacha aynan shu tarzda etib kelgan. Undagi uch qismli goʻrxona IX – XII asrlarda qurilgan boʻlib, bu erdagi masjid nomini olgan xonaqoh XIV asrda qurilgan [6].

Xoʻjantdagi Shayx Masluxiddin maqbarasi esa, dastlab XII asrda bunyod etilgan[7]. Koʻxna Urgenchdagi Shayx Najmiddin Qubro maqbarasi joyida dastlab uning xonaqosi shakllangan boʻlib, Shayx vafotidan soʻng u maqbaraga aylangan. Shuning uchun ham bu taniqli meʼmoriy yodgorliklar ilmiy adabiyotlarda maqbara deb atalib ketgan.

Shunday qilib, xonaqoh binolarining meʼmoriy shakllanish evolyusiyasi dastlab oddiy hovlili kompozitsiyadan boshlanib, soʻngra masjidlar va “ilohiy” mozorlar qoshidagi memorial majmualar bilan qoʻshilib, asrlar osha bizgacha masjidlar va maqbaralar nomida hamda alohida qurilgan mahobatli xonaqohlar tarzida, koʻp xonali peshtoqli-gumbazli simmetrik meʼmoriy obrazlarda, turli rejaviy echimlarda: mujassam (yigʻnoq), boʻylama – oʻqli, frontal va hovlili kompozitsiyalarda etib kelgan. Ushbu echimlar asosini meʼmoriy simmetriya, yaʼni tarh va tarzning uygʻunlik va yaxlitlik qonuni tashkil qilgan.

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES.

1. Пугаченкова Г.А. Зодчество Центральной Азии. XV век. – Ташкент, 1976.
2. Пугаченкова Г.А. Ханака Бахауддина. // Журнал Маскан, N 7, 1998.
3. Бабур. Бабурнаме. Кн.2. - Ташкент, 1982.
4. Чехович О.Д. Бухарские документы. XIV в. -Ташкент, 1965.
5. Шацкая Т.В. Хаузы и культ воды в Средней Азии. // Журнал Маскан, №5-6 1993.
6. Мукимов Р.С., Мамаджанова С.М. Зодчество Таджикистана. – Душанбе, 1990.
7. Мамаджанова С.М. История национального зодчества. -Душанбе, 1993.
8. Uralov A.S., YUsupov R. O'rta Osiyoning o'tmishdagi ta'lim-tarbiya va ilm-fan maskanlari. –Samarqand, 2005.
9. Махматқулов, И. Т., & Каримова, Н. А. (2022). Analysis of the functional features of the buildings of the khanaka-the institution of Sufism in Central Asia. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 5, 46-51.
10. Turdimurodovich, M. I., Djurakulovich, G. B., & Quziyevich, E. I. (2020). The role and place of the khanqahs in spreading the mysticism and spiritual purification to the peoples of central asia. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(3), 561-563.
11. Turdimurodovich, M. I. (2018). The analysis of town-planning conditions of placement of hanakah buildings in the structure of central asian cities. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 7(4), 238-240.
12. Махматқулов, И. Т. (2020). Типология архитектурно-композиционных решений зданий ханака в центральной азии. *Электронный сетевой политематический журнал "Научные труды КубГТУ"*, (8), 581-585.
13. Махматқулов, И. Т., & Makhmatkulov, T. M. (2023). The Architectural Construction and Advices of Using in Modern Ways Khonaqohs of Ancient Monuments of Uzbekistan. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture* (2993-2637), 1(1), 8-11.
14. Elmuradovna, J. E., Turdimurodovich, M. I., & Zuyadullayevich, Z. U. (2020). Modern tourist requirements in samarkand. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(4), 1538-1540.

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-4 СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-II, НОМЕР-3-4

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-II, ISSUE-3-4

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz